

MUSTAQILLIK YILLARIDA HAJ ZIYORATI

Urakova Feruza

Nizomiy nomidagi TDPU, Tarix fakulteti 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu tezisda O'zbekiston Respublikasida Mustaqillik yillarida haj ziyoratining yo'lga qo'yilishi, unga doir qaror va farmoyishlarning yuzaga kelishi hamda sohadagi yutuqlar muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: islom dini, haj ziyorati, qaror, qonun, natija.

KIRISH

Davlatimiz Mustaqillikka erishgach din erkinligiga ega bo'ldi va vijdon erkinligi Konstitutsiyamizda mustahkamlandi. Shunday sharoitda musulmonlar uchun haj ziyorati eshiklari ochildi va bu borada hukumat qarorlari chiqa boshladi.

ASOSIY QISM

Bu kabi qarorlar sirasiga quyidagilarni kiritish joiz: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Har yilgi "Haj" va "Umra" tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish masalalari bo'yicha jamoatchilik kengashini tashkil etish to'g'risida"gi PF-3793-sonli Farmoni. 2006 yil 28 avgust, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. 2017 yil 7 fevral, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi PF-4958-sonli Farmoni. 2017 yil 16 fevral, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Haj" va "Umra" tadbirlarini tashkil etish va o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 364-sonli qarori. 2017 yil 7 iyun.

Aytish lozimki O'zbekiston va Saudiya Arabistoni o'rtasidagi diplomatik va diniy munosabatlar yil sayin yaxshilanib bormoqda. Buni hajga safar qiluvchilar sonining oshib borishi bilan ham izohlash mumkin. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Hukumatining o'z ahamiyatini yo'qotgan ayrim qarorlarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'z ahamiyatini yo'qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko'rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" 2020-yil 27-sentabrdagi PF-6075-son Farmoni), "Haj" va "Umra" tadbirlarini tashkil etish va o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari



to'g'risida Vazirlar Mahkamasining qarori so'zimiz isboti bo'la oladi. Unga ko'ra: Har yilgi "Haj" va "Umra" tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish masalalari bo'yicha jamoatchilik kengashi Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari huzuridagi Har yilgi "Haj" va "Umra" tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha hay'atlar bilan birgalikda har yili "Haj" va "Umra" tadbirlariga boradigan fuqarolar kvotasining ro'yxatda turgan fuqarolarning umumiy sonidan kelib chiqib, mutanosib ravishda taqsimlanishini ta'minlanishi, Har yilgi "Haj" va "Umra" tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish masalalari bo'yicha jamoatchilik kengashi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari huzuridagi Har yilgi "Haj" va "Umra" tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha hay'atlar "Haj" va "Umra" tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi Nizom talablari hamda "Haj" va "Umra" safarlariga boradigan fuqarolarning kvotasi va uning hududlar bo'yicha taqsimoti haqida aholi o'rtasida keng tushuntirish ishlarini olib borsinlar. "Haj" va "Umra" ziyoratlari bilan bog'liq tadbirlar, Har yilgi "Haj" va "Umra" tadbirlarini tashkil etish va o'tkazish masalalari bo'yicha jamoatchilik kengashi tomonidan qabul qilingan qarorlar ommaviy axborot vositalari orqali yoritib borilishiga, xususan "Mahalla" telekanali imkoniyatidan ko'proq foydalanishga e'tibor qaratishi va boshqalar belgilab berilgan.

So'nggi yillarda haj ziyorati shaffofligi borasida qator qadamlar tashlandi. Jumladan Din ishlari bo'yicha qo'mita fuqarolarning bu boradagi bir qator savollariga javob qaytararkan, quyidagilarni ta'kidlab o'tdi:

Din ishlari bo'yicha qo'mitaning taklifiga binoan, O'zbekiston Respublikasining Jidda shahridagi Bosh konsulxonasidan yurtimiz ziyoratchilariga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan, Saudiya Arabistonida Haj va Umra ziyoratlarini tashkil etish faoliyati bilan shug'ullanuvchi 10ta shirkatdan muqobil takliflar olingan va ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o'rinbosari boshchiligidagi ishchi guruhi Saudiya Arabistoniga qilgan tashrifi davomida mazkur firmalar faoliyati bilan yaqindan tanishib, ularning Haj va Umra ziyoratlarini tashkil etishdagi imkoniyatlarini o'rganib chiqdi.

O'rganish davrida shirkatlar Haj va Umra mavsumlarida o'zbekistonliklarga xizmat ko'rsatish huquqini olish uchun turli yo'llardan foydalanishi ma'lum bo'ldi. Shirkatlarning ba'zilar ziyoratlarni tashkil etishda barcha imkoniyatlarga ega ekanligini bildirgan bo'lsa-da, joyida borib o'rganilganda afsuski, hech qanday kuchga ega emasliklari, 5-6 ta shirkat tomonidan «bizga tegishli» deb Makka



shahridagi 1 ta mehmonxona ko'rsatgani, ba'zilar faqat transport xizmati ko'rsata olishi ma'lum bo'ldi. Vaholanki, shirkatlar hujjat topshirganda barcha xizmatlarni amalga oshirishini ma'lum qilgan.

Shuningdek, Haj mavsumida aviareyslarni mahalliy shirkatlar tomonidan Madina aeroportiga qo'ndirish imkoniyatlari masalasi ham o'rganilgan bo'lib, faqat «al-Hidoya» xalqaro shirkatida ushbu imkoniyat mavjudligi aniqlangan.

Ishchi guruhining yuqoridagi masalalarni o'rganishi natijasida uzoq yillar davomida o'zbekistonlik hojilarga namunali xizmat qilib kelayotgan «al-Hidoya» xalqaro shirkati munosib deb topildi. Mazkur shirkat faoliyati o'rganilgan barcha firmalardan O'zbek xalqi urf-odati, tabiati, madaniyati va servis xizmati mosligi jihatidan har tomondan ustun ekanligiga ishonch hosil qilindi.

«Haj» tadbiri O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita va Saudiya Arabistoni Podshohligi Haj vazirligi o'rtasida har yili imzolanadigan shartnoma asosida amalga oshiriladi. «Umra» tadbiri O'zbekiston musulmonlari idorasi va uning Saudiya Arabistonidagi hamkor tashkiloti o'rtasida har yili imzolanadigan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladi», deb belgilangan.

Din ishlari bo'yicha qo'mita amaldagi qonun va qoidalarga binoan faoliyat olib boradi. Turistik firmalarning mazkur tadbirlarni amalga oshirishini belgilash qo'mita faoliyatiga kirmaydi.

Kelgusida haj ziyorati yanada arzonlashishi hamda yanada qulay imkoniyatlar yaratilishini kutib qolamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <http://old.muslim.uz/index.php>
2. <https://religions.uz/news>
3. <https://nasafziyo.uz>
4. <https://kun.uz/37205312>
5. <https://yuz.uz/news>
6. www.lex.uz

